XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-noyabr VII-3-012-8-111-K/24 Denov tumani

2024-yilning 3-choragi davomida Denov tumani mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatgichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2022-yil 8-apreldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi №QQ-331-IV-sonli qarorlari muvofiq tuman budjetining joriy yil 3-choragi davomida shakllangan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Denov tumani Kengashi

QARORQILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2020-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-657-son Qonunining 14-moddasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2022-yil 8-apreldagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika budjetining, viloyatlar viloyat budjetlarining, Toshkent shahri shahar budjetining, tuman tumanlar va shaharlar budjetlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni tartibga solish to‘g‘risida”gi №QQ-331-IV-sonli qarori muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining 2024-yilda 3-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘i **3 917 952,0 ming so‘mni** tashkil etganligi shundan: **218 965,0 ming so‘mi** yer uchastkalariga bulgan huquqlarni sotishdan tushganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Joriy yil 3-choragida shakllangan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘larining qolgan qismi **3 698 987,0 ming so‘m** quyidagi xarajatlarga yo‘naltirilgan.

jumladan;

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘lik tadbirlarga **2 542 676,0 ming so‘m ya’ni 68,7 foizi;**

Boshqaruv organlari bilan bog‘lik tadbirlarga **767 933,0 ming so‘m ya’ni 20,8 foizi;**

Boshqa xarajatlarga **250 000,0 ming so‘m ya’ni 7,0 foizi** hamda **113 258,0 ming so‘m** taqsimlanmagan mablag‘ yo‘naltirilganligi ilova muvofiq tasdiqlansin.

4. Mahalliy budjetining qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulotda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari tuman mahalliy budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasiligi belgilansin.

6. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Denov tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

ABRAROV ILXOM IBRAXIMOVICH

Xalq deputatlari Denov tumani Kengashining
2024-yil 29-noyabrdagi
VII-3-012-8-111-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Denov tuman mahalliy budjetining 2024-yilda 3-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

(ming so‘m)

T/r	Tashkilotlar nomi	№	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
a	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**
	Jami shakllangan manba			**3 698 987,0**	**100%**
	Jami ajratilgan mablag‘			**3 585 729,0**	***96,9%***
	Taqsimlanmagan mablag‘			**113 258,0**	***3,1%***
I.	**Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘lik tadbirlariga**			***2 542 676,0***	***68,7%***
1	Denov tuman hokimligiga	1.1	Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo‘yilgan yer egalariga beriladigan kompensatsiya to‘lovidan yuzaga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun (Denov tumanlararo sudi 22.04.2024 y №4-1905-2401/84-sonli karoriga va MIB ijro xujjatiga asosan "AVTO OLAM KLASS" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT)	1 433 000,0	

		1.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi PQ-5072-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xat boshiga asosan 2021 yil 1 iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budjetlari qo‘shimcha mablag‘larining eng kamida 30 foizi "Ochiq budjet" portaliga jamg‘armasiga yo‘naltirishga	1 109 676,0	
II.	**Tuman xokimligi va boshqa boshqaruv organlariga**			**793 053,0**	***21,4%***
2	Denov tuman hokimligiga	2.1	Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2022-yil 10-martdagi "Surxondaryo viloyat hokimligi Axborot xizmati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi VI- 45-59-8-0-K/22-sonli kengash qarorining 2-ilovasiga asosan Tuman hokimligining matbuot hizmatining bosh va yetakchi mutaxassislarini rag‘batlantirish, ish xaqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga	77 336,0	
		2.2	Surxondaryo viloyat hokimligining 2024 yil 17 oktabrdagi 02-02/2117-son xatiga asosan tuman xokimligi tashkiliy nazorat guruxi bosh mutaxassislarini rag‘batlantirishga	38 000,0	
		2.3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet vakolatlarini kengaytirish va mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3042-sonli qaroriga asosan Denov tuman hokimligining xodimlarini rag‘batlantirishga	214 120,0	
		2.4	Tuman hokimligi xodimlarining xizmat safari harajatlari uchun	5 000,0	
		2.5	Tuman hokimligining xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i sotib olish uchun	50 000,0	
		2.6	Denov tuman hokimligining internet va gibrid pochta xizmatlari to‘lovlari uchun	27 766,0	
		2.7	Viloyat "Axborot-Kommunikatsiya Texnologiyalarini Rivojlantirish Markazi" MChJga	50 000,0	

		2.8	Tuman hokimligining Ma’muriy va Fuqarolik sudlari qarorlari ijro varaqasini to‘lash uchun	18 300,0	
		2.9	Denov tuman hokimligining Quriqlash xizmati uchun	250 000,0	
		2.10	Tumanda obektlarga kuzatuv kameralari o‘rnatishga	40 000,0	
3	Xalq deputatlari Denov tuman Kengashi kotibiyatiga	3.1	Xalq deputatlari Denov tuman Kengashi kotibiyatiga xodimlarini rag‘batlantirishga	14 600,0	
4	Denov tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limiga	4.1	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8-avgustdagi "Xududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustivor chora tadbirlar "gi PQ-3182-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tuman 1-sektor shtabi kotibini rag‘batlantirishga	7 931,0	
III.	**Boshqa xarajatlarga**			**250 000,0**	***6,8%***
5	Denov tuman Obodonlashtirish boshkarmasiga	3.1	Obodonlashtirish boshkarmasiga (Ko‘chalarni toshlash uchun yoqilgi sotib olishga)	50 000,0	
6	Denov tuman Madaniyat bulimiga	3.3	Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-apreldagi 240-sonli qarori 2-ilovasi va Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 20-maydagi 414-8-0-Q/24-sonli qarori 2-ilovasida namunali shaklda Denov tuman “17-son Farg‘ona” madaniyat markaziga kutubxona va kinozal qurishga, madaniyat va san’at muassasalarini musiqa cholg‘u asboblari, tasviriy va amaliy san’at asbob-uskunalari, ovoz yozish, ovoz kuchaytirish, badiiy yoritish uskunalari va mebel jihozlari bilan ta’minlashga	200 000,0	
IV.	**Taqsimlanmagan mablag‘**			**113 258,0**	***3,1%***